
Qo'shtepa tumanida Yoshlar muammolari hal etilmoqda

Bugun Qo'shtepa tumanidadagi Madaniyat markazida sektor rahbarlari mahallalardagi yoshlar bilan ochiq muloqot o'tkazdi. Bu uchrashuv davomida yoshlar o'z taklif va mulohazalari bilan mas'ul rahbarlarga murojaat qilib, dolzarb tashabbuslarni ilgari surdilar. 11 nafar yoshlarning murojaatlari tegishli tashkilot rahbarlari ishtirokida muhokama qilinib hal etish bo'yicha tegishli choralar ko'rildi.

Muloqot yakunida yoshlarning taklif va tashabbuslarini amalga oshirish, shuningdek, mavjud muammolarni bartaraf etish bo'yicha zarur chora-tadbirlar belgilab olindi. Bu nafaqat yoshlarning muammolarini hal qilishga yordam beradi, balki ularning kelajakda mustahkam qadamlar tashlashlariga ham katta turtki bo'ladi.

2024-12-18 18:12:20